

---

## Ikkinchi jahon urushi faxriylariga Prezident sovg'alari topshirildi

Har yili mamlakatimizda 9 may - Xotira va qadrlash kuni keng nishonlanadi. Bayram munosabati bilan urush faxriylari xonadonlariga borilib, holidan xabar olinadi, sovg'a salomlar topshiriladi. Ayniqsa, urush qatnashchilarining boshidan o'tkazgan qonli janglar haqidagi hikoyalari kishida o'zgacha taassurot qoldiradi. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan imzolangan "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida shahrimizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tumanimizdagi 2 nafar urush qatnashchilari va yuzdan ortiq front orti ishtirokchilari holidan xabar olinib, ular ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkillanmoqda. Bugun ham keng jamoatchilik vakillari Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining xonadonlariga tashrif buyurishdi. Urush faxriylarini taqdirlash marosimlarida tuman hokimligi vakillari, mudofaa bo'limi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar mas'ullari, nuroniylarni qo'llab-quvvatlash Kengashi faollari hamda Yoshlar ishlari agentligi vakillari ishtirok etishdi. Mas'ullar Davlat rahbarining tabriknomasini o'qib eshittirdilar. Urush qatnashchilariga 15 million so'mdan pul mukofoti, ramziy belgi hamda konditsioner kabi esdalik sovg'alari, shuningdek zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi. Keksa-nuroniylar ularga qaratilayotgan e'tibor va ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikdan mamnun bo'lishib, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lishini tilab duo qildilar.

2022-05-09 06:35:09